Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
PEDAGOGIKA

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TA'LIMIDA BOG'LANISHLI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Arzayim Paraxat qizi Reyembayeva*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
✉ arzayim.reyembaeva@ndpi.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning og'zaki va yozma bog'lanishli nutqini rivojlantirishning lingvistik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, til satrlari (leksika va sintaksis), so'z boyligini oshirish, sodda va qo'shma gaplar ustida ishlash hamda matn yaratish mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

Bog'lanishli nutq, leksik-semantik sath, sintaktik-konstruktiv, matn, til birliklari, gap, nutqiy faoliyat.

DOI: 10.5281/zenodo.21743728

Kirish. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limining bosh maqsadlaridan biri o'quvchining og'zaki va yozma nutqini to'g'ri, ravon, mantiqiy izchil va ta'sirchan etib shakllantirishdan iboratdir. Bog'lanishli nutq o'quvchining nafaqat o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyati, balki uning shaxs sifatida kamol topishi, o'z fikrini erkin bayon eta olishi va boshqalar bilan muloqotga kirisha olishining asosiy vositasidir.

Mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlash uchun uning lingvistik asoslarini chuqur ochib berish ilmiy-metodik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinf ona tili o'quv dasturlarida o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish, bog'lanishli nutqni o'stirish hamda ularning estetik tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda darslikdagi matnlarni tahlil qilish va maxsus leksik-grammatik mashqlardan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Bog'lanishli nutq – fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, mantiqiy va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq sifatida namoyon bo'ladi [2:256.].

Professor M. G'ulomov o'zining ilmiy tadqiqotlarida o'zbek tilining sintaktik tuzilishi, gap va uning turlari, shuningdek, so'zlarni o'zaro bog'lash usullarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. [1:45.]. Olimning fikricha, o'quvchilarda bog'lanishli nutqni rivojlantirish uchun avvalo sodda va qo'shma gaplarni mantiqiy bog'lash, sintaktik qoidalarni puxta o'zlashtirish talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari gap tuzish malakasini egallamasdan turib, mukammal bog'lanishli nutqqa (matn yaratishga) erisha olmaydilar.

Bog'lanishli nutqni rivojlantirishning lingvistik asoslari til tizimining sathlari, xususan, leksika va sintaksis qonuniyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Tilshunos olim R.Sayfullayeva va boshqalarning hammuallifligida yaratilgan ilmiy manbalarda til tizimining barcha sathlari bir-biri bilan uzviy aloqadorligi ko'rsatib o'tilgan [3:112.]. Xususan, sintaksis so'z birikmasi va gap sintaksisi, ularning mazmuniy hamda grammatik aloqalari o'quvchining nutqini shakllantirishning poydevori sifatida qaraladi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bog'lanishli nutqni shakllantirish jarayoni tilning kichik birliklaridan (leksika) yirik sintaktik birliklargacha (matn) bosqichma-bosqich o'sib borishini taqozo etadi.

Yuqoridagi nazariyalardan kelib chiqqan holda, tadqiqotimiz doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bog‘lanishli nutqni shakllantirish bosqichli tizimini quyidagi jadval orqali ko‘rib chiqamiz:

1-bosqich (Leksik-semantik): Til birliklari: So‘z va uning ma’nosi. Yondashuv: O‘quvchining so‘z boyligini faollashtirish, mavzuga doir leksik birliklarni tanlash va nutqda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish. Natija: Fikerni aniq va tushunarli bayon etish uchun leksik poydevor yaratiladi.

2-bosqich (Sintaktik-konstruktiv): Til birliklari: So‘z birikmasi va sodda gaplar. Yondashuv: So‘zlarni o‘zaro grammatik jihatdan bog‘lash, sodda gap tuzish hamda gap ustida maqsadli ishlash mashqlarini bajarish. Natija: Gap tuzish malakasi shakllanib, sintaktik qoidalar amalda mustahkamlanadi.

3-bosqich (Matn yaratish / Sintaktik yaxlitlik): Til birliklari: Qo‘shma gaplar va yaxlit matn. Yondashuv: Gaplarni mantiqiy va mazmuniy bog‘lash, fikrni izchil davom ettirish orqali mukammal bog‘lanishli nutq hosil qilish. Natija: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil matn yaratish va muloqot qilish layoqati to‘laqonli rivojlanadi.

Mazkur jarayonning ilmiy-nazariy asoslarini yanada chuqurlashtirib, tadqiqotchi S.S.Tajbenovaning ta’kidlashicha, lingvistik kompetensiyani shakllantirish jarayoni o‘quvchilarning til birliklarini (fonetik, leksik, grammatik) o‘zlashtirishi, ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llay bilishi hamda muloqot jarayonida o‘z fikrlarini erkin va ravon bayon etish ko‘nikmalarini egallashi bilan uzviy bog‘liqdir [4:24.].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirish lingvistik asoslarga, xususan, leksika va sintaksis qonuniyatlarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga tayanadi. O‘quvchilarda so‘z boyligini oshirish, gap tuzish malakasini shakllantirish va ularni matn darajasiga olib chiqish ularning nutqiy savodxonligini oshirishning asosiy omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘ulomov M. O‘zbek tili sintaksisidan materiallar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988. – 142 b.
2. Matchonov S., Qosimova K., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi: Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. – Toshkent: Bayoz, 2022. – 304 b.
3. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 416 b.
4. Tajbenova S.S. Ona tili darslarida o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi (ta’lim qoraqalpoq va qozoq tillarida olib boriladigan boshlang‘ich sinf misolida): Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus, 2025. – 70 b.